



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINING O‘RNI

Eshpo‘latova J.E.

*Termiz davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”
kafedrası o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: nutq, yozma nutq, og‘zaki nutq, ta‘lim, oila, motiv, innovatsiya kreativ, mustaqil.

Ключевые слова: речь, письменная речь, устная речь, воспитание, семья, мотив, новаторство, творческий, самостоятельный.

Key words: speech, written speech, oral speech, education, family, motive, innovation, creative, independent.

Kirish. Hozirgi kunda muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratmoqda. Bugungi kunda fan va texnikaning o‘tib borishi ta‘limga yangiliklar kiritishni talab etmoqda. Innovatsion g‘oyalarni yaratish, uni boshqalarga tatbiq etish orqali yurtimizdagi maktab muassasalaridagi o‘quvchilarga turtki bo‘lmoqda. Ta‘lim sifatini yanada oshirish uchun bizga albatta yozma nutq bilan birga og‘zaki nutq ham kerak. Farzandlarimizni og‘zaki nutqi qanchalik rivojlangan bo‘lsa yozma nutq savodxonligi ham shunchalik rivojlangan va ravon bo‘lishi kerak. Ta‘lim jarayonida oilaviy muhitning tutgan o‘rni ta‘lim samaradorligini oshirishga, tahlil qilishga va amaliyotga joriy etishi bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni oldimizga maqsad qilib qo‘yishimiz va albatta bu maqsad sari olg‘a qadam tashlashimiz zarur.

Ta‘lim tizimimizga katta yutuqlar olib kirish uchun barcha ta‘lim sohaning vakillari bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi lozimdir. Ta‘lim sifatini yanada oshirish uchun bizga albatta yozma nutq bilan birga og‘zaki nutq ham kerak. Farzandlarimizni og‘zaki nutqi qanchalik rivojlangan bo‘lsa yozma nutq savodxonligi ham shunchalik rivojlangan va ravon bo‘lishi kerak. Har bir bola bir-biridan ikkinchisiga o‘tib, bosqichlarni bosib o‘tadi. Yosh bosqichlarda bola ko‘nikmalar, bilimlar, shaxsiy xususiyatlar va harakterli xususiyatlarning

rivojlanishi bilan birga keladi. Bolani tarbiyalashda ota-ona albatta yosh xususiyatiga qarshi lozim. Bunda bolalarga tug‘ilganidan boshlab ya’ni chaqaloqlik davridan boshlab o‘rgatib borish zarur. Bunda ona farzandiga “alla” aytishi va turli she’rlar, qo‘shiqlar aytib kiyintirishi kerak. Uch yoshdan etti yoshgacha bolalarda ushbu yoshdagi bolalarda o‘zlarini qilgan ishlarini kattalar tomonidan maqtashini xohlaydilar. Bu yoshda bolalar nutq faoliyati rivojlanadi. Bunda ota-ona albatta farzandiga o‘rnak bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Ya’ni ona farzandiga baqirmaslikni o‘zini o‘tkazishni, injiq bo‘lmaslikni o‘rgatadi-yu, ammo o‘zi baqirsa bola onadan ko‘chiradi. Bu yoshda bolalar ota-onasiga o‘xshashni istashadi. Shu yoshda ota-onalar farzandiga o‘rnak bo‘lishi kerak. O‘yinlar orqali bolalarga ko‘p narsalarni o‘rgatish lozim. Ya’ni turli o‘yinlar yordamida bolani so‘z boyligini oshirish, so‘zlarni to‘g‘ri aytishni o‘rgatish ham mumkin. Oilada o‘qimishli ona farzandiga tarbiya bersa va albatta ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borilsa, yurtimizga yurtimizda yetuk kasb egalari etishib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. XXI asrga kelib, insoniyat o‘zi uchun kerakli va hammaning hayoliga keladigan deyarli barcha narsani yaratib bo‘ldi. E’tibor bering, ayni vaqtda muvaffaqiyatga erishgan juda ko‘plab shaxslar, bir necha dekadalar avval insonlar tasavvur ham qila olmagan g‘oyalarini amalga oshirishgani tufayli shu darajaga chiqishgan. Jeff Bezos, online do‘kon trendi orqali mashhur bo‘ldi. Bu trend O‘zbekistonga endi kirib kelmoqda. Demak, bundan shuni anglash mumkinki, kreativlik ayni damda muvaffaqiyatga erishishingiz yo‘lida asosiy vositalardan biri.

Kreativlik- bir qobiliyat deyish mumkin. Ammo quyida faktlar bilan kreativlik nega eng muhim omillardan biriga aylanayotganini tushuntirib o‘taman. Kreativlik- bu qaysidir ma’noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo‘shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlikdir.

Rus va xorijiy pedagog-psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarini tahlil etadigan bo‘lsak, ularda kreativlik shaxs ijodkorligining asosini tashkil etuvchi tushuncha sifatida talqin etilganligiga guvoh bo‘lamiz;

- kreativlik qarama-qarshiliklar, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish imkoniyati (G.Altshuller, M.Zinovkina);
- kreativlik iqtidorga bog‘liq bo‘lmagan holda, shaxsning barcha sohalaridagi faolligi, ijodkorlikka qobilyati (N.Drujinin);
- kreativlik – individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nimalar hosil qilish qobilyati, hislati (D.Gilford); Kreativlik o‘z ichiga muammolarga



nisbatan yuqori darajada sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Lekin tadqiqot muammosi sifatida o'rganilayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi esa bu jarayonga nisbatan boshqacha yondashuvni nazarda tutadi. Bunda asosan e'tibor, jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan kashfiyotlarni emas, balki pedagogik jarayonning samaradorligi, o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro muvaffaqiyatli hamkorliklarini o'rganishga qulay sharoit yaratadigan o'qitishning yangicha shakl, metod va vositalarini izlab topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa bilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Pedagogik ta'lim tizimida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o'quv jarayonini ular shaxsiga yo'naltirish nazarda tutiladi. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim tizimida gimnastik nuqtai nazarining rivojlanishi, talabalarni ahloqiy hamda kasbiy etuklik, faollik, mustaqillik, nazariy-tahliliy faoliyatga undash imkonini beradi. Buning natijasida talabalarda o'z-o'zlarini rivojlantirish, o'z kasbiy faoliyatlarini dolzarblashtirish, yaratuvchilik, istiqboldagi pedagogik faoliyatga o'zini tayyorlash va moslashtirish kabi kompetensiyalari tarkib toptiradi.

Fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari ishlab chiqarish bilan birga, ta'lim sohasiga ham sezilarli o'zgarishlar, yangiliklar va o'qitishning zamonaviy vositalarini olib kirish imkonini berdi. Bu yutuqlarning ta'lim sohasiga kirib kelishi uning an'anaviy vazifalariga nisbatan ham sezilarli o'zgartirishlar kiritish zaruratini qo'ydi. Shu asnodan ta'limdagi islohatlar mohiyatini tushunish va anglab etish uchun zaruriy pedagogik shart-sharoit va ijodiy muhitni yaratish muammosi yuzaga keldi.

Shunga ko'ra, bugungi kunda pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo'nalishlari – mavjud an'anaviy ta'lim paradigmasining obyektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyatlarni modernizatsiyalashdan iborat etib belgilanadi. Ushbu o'rinda, ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish ijodkorlik hamda fikrlash mezonlariga tayanuvchi paradigmani yaratish zarurati namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, kadrlar ta'minoti kabi jihatlarini rivojlantirilmoqda. Pedagogik ta'lim tizimida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o'quv jarayonini ular shaxsiga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda kreativlik tushunchasi ijod, ijodkorlik tushunchasining tarkibiy qismi sifatida yoritiladi. Ijod- insonning moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Unda inson tafakkuri,



xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, bugun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy nuqtai nazardan o'rganiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi. Shundan so'ng tajriba natijalariga asoslanib mantiqiy xulosalar chiqariladi, farazlar ilgari suriladiva bularning barchasi tajribada sinab ko'riladi, mavhum qarashlar oydinlashtiriladi, yangilanadi va to'ldiriladi. Ijod, o'z navbatida, izlanuvchining ma'lum yangilik yaratishi uchun obyektga qaratilgan shaxsiy qobilyatlardan kelib chiquvchi bilimlar va hissiy kechinmalarni namoyon qilish jarayoni sifatida ham tavsiflanadi.

Bayon qilingan fikrlardan shu narsalar ayon bo'ladiki, ijod faqat yangi g'oya yoki yaratuvchanlikning mahsuli emas. Ijod tom ma'noda –yaratilgan yoki ilgari surilgan biror yangi g'oyaning asoslanishi, tajribadan o'tib amaliyotda o'zini oqlashi, muhim jamiyat, xalq uchun biror naf keltira oladigan natijaga ega bo'lishi bilan belgilanadigan yangilik hisoblanadi. Shaxs ijodiy faoliyatining asosini kreativlik tashkil etadi. Shuningdek, kreativlik insonning borliqni bilish va o'zgartirishga yo'naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo'lib uning natijasida yangi, betakror, ilgari mavjud bo'lmagan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar yaratiladi. O'quvchilarni kreativ fikrlashini oshirish maqsadida 2-sinf o'qish darsligida keltirilgan ushbu savollar "Kichkinagina, kulrang filga o'xshaydi" savoli o'quvchilarni kreativlik fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Ijodiy shaxs - rivojlangan ijodiy fikrlash tufayli ijodiy g'oyalarni qabul qila oladigan shaxs. Bunday odamni "boshqa sayyoradan" deb o'ylamang. Bu mutlaqo ziddiyatli ko'rinmaydi. Bolalar qichqirib qochib ketadigan va kampirlar o'zlarini kesib o'tadigan bezatilgan pank har doim ham ijodiy odam bo'lib chiqavermaydi. Mutlaqo yo'q. Ijodkorlik harakatlarda va ijodiy g'oyalarni - nostandart echimlarni yaratish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Asosiy farq ta'riflarda, ijodkorlik - bu yangi ma'lumotlarni yaratish uchun zarur bo'lgan ma'lum ma'lumotlarning kombinatsiyasi. Ijodkorlik - bu ijodiy fikrlash qobiliyati. Har bir atama bir nechta jihatlarni birlashtiradi, ijodkorlik aql va tasavvurni, fikrlash va axborot bilan ishlash qobiliyatini, shuningdek, odamning odatiy vositalar va naqshlardan tashqariga chiqish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ijodiy qobiliyatlar zukkolik bilan ajralib turadi - muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvni tezda topish qobiliyati.

Tadqiqot natijalari. Sharqda "Muallimi soniy" ("Ikkinchi muallim") nomi bilan mashhur Abu Nasr Farobiy ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim hisoblanadi. Ulug' mutafakkir ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari



o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'quvchilarga singdiriladi, kasb-hunarga oid ko'nikmalar hosil qilinadi, degan g'oyani ilgari suradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi, uqtiradi. Alloma pedagogning faoliyati haqida to'xtalib shunday yozadi: O'qituvchining vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshab ketadi. Shu sababli o'qituvchi ko'rgan va eshitganlarining barchasini yaxshilab esda saqlab qolishi, bilmog'i, aql farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lmog'i va o'quvchilarning aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur, o'qituvchi faqat fan bilan shug'ullanib qolmay, balki o'z bilimlarini o'quvchilariga ham berishi, bunda mashaqqatli mehnatdan charchash nimaligini bilmasligi lozim. O'qituvchi haqiqatgo'y bo'lishi yolg'ondan o'zini tiyishi, yolg'onni va yolg'on gapirganni yomon ko'rishi, g'ururli bo'lishi va o'z or-nomusini qadrlashi, o'quvchilarga nisbatan adolatli bo'lishi ko'zlagan maqsadiga erishishda qat'iylik ko'rsata bilishi lozim. Forobiyning ta'kidlashicha, bunday insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi. Bu esa har qanday xatarli harakatdan xabardor bo'lganligi tufayli baxtga erishadigan odamlardir.

Hozirgi kunda sifatli ta'limga qaratilayotgan e'tibor kuchayib borayotgani uchun "Yangi avlod" darsliklari yaratildi. Bu darsliklar "4K" modeli asosida yaratilgan.

1. Kritik- bu tanqidiy fikrlash.
2. Kreativlik- bu ijodiy yondashuv.
3. Kommunikatsiya-muloqot qilish ko'nikmasi
4. Kooperatsiya-bu jamoaviy ishlash.

Darsliklar shu asosida tuzilgan bo'lib o'quvchilar bilimini oshirishda kata ahamiyat kasb etadi. Kritik (tanqidiy) fikrlash

– vaziyatni obyektiv baholash, analiz, sintez, kerakli ma'lumotlarni ajrata olish orqali boshqalarning fikrlarini qabul qilish, masalalarga mantiqan yondashish, xulosa qilish.

- tahlil

– topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni echishning yakuni, algoritmlarini yaratish qobiliyati;

- baholash

–kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;

-maqсадlarni belgilash

– erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish,

- o'zini boshqara bilish

– o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);



- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
- dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Farzandlarimizga avvalo o‘zimiz hamma sohada vatanga, xalqqa sadoqatli bo‘lishda, ilmga, kasb-hunarga mehr qo‘yishda ota-ona, jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy na‘muna ko‘rsatishimiz kerak”. Bu fikrlar barcha kasb egalarining qalblariga yetib borib o‘z kasblariga sadoqatli bo‘lishlariga da‘vat etadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yangi avlod darsliklari 4K modeli o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin bayon qila olishlariga o‘zgalar fikrini tushuna olishlariga katta yordam beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, oiladagi muhit, ota-onaning farzandlariga bo‘lgan e‘tibori, ta‘lim muassasalarining o‘quvchilar bilimiga, fanlarni o‘zlashtirilishiga, o‘quvchilar fikrini erkin bayon qila olishiga e‘tibor berish kerak.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma‘naviy etuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutq. // Ma‘rifat. Toshkent, 2017 yil 1 - iyul № 52.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yoldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009. - 352 b.
3. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi.
4. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori T. O‘zbekiston. 1998-y.
5. Eshanqulovna, E. L. J. I. (2024, February). Boshlangich sinf o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish. in international conference on modern development of pedagogy and linguistics (Vol. 1, No. 2, pp. 68-71).
6. Eshpulatova Jang‘il Eshonqulovna. (2023). Methodology of development of creative skills of primary class students. International Journal of Pedagogics, 3(03), 25–31.
7. Ziyonet. Uz

РЕЗЮМЕ

Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni samarali amalga oshirish o‘quvchilarni yangi o‘quv materiallarini qabul qilishga tayyorlash, fanlararo, mavzulararo bog‘lanishni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, shuningdek, har bir darsni rejalashtirish va ularni mohirona o‘tkazish o‘qituvchidan chuqur va puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida dars samaradorligini orttirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘limning yangi darsliklari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

Эффективная реализация межпредметной коммуникации в ходе урока, подготовка учащихся к восприятию новых учебных материалов, реализация межпредметных и межтемических связей, создание проблемных ситуаций, а также планирование и умелое проведение каждого урока – это глубокий навык, преподавателем и требует тщательной подготовки. Это, в свою очередь, служит повышению эффективности урока.

SUMMARY

Effective implementation of interdisciplinary communication in the course of the lesson, preparation of students to accept new educational materials, implementation of interdisciplinary and intertopical connections, creation of problem situations, as well as planning and skillful conduct of each lesson is a deep skill from the teacher. and requires careful preparation. This, in turn, serves to increase the effectiveness of the lesson.